

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UZOQOVA SHAXNOZA SOIBNAZAROVNA**

**BADIIY DISKURSDA VOQELANGAN HARAKAT**  
**MODIFIKATORLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**  
**(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va**  
**tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**  
**dissertatsiyasi avtoreferati**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological  
sciences**

**Uzoqova Shaxnoza Soibnazarovna**

Badiiy diskursda voqelangan harakat modifikatorlarining lingvokulturologik tadqiqi  
(ingliz va o'zbek tillari misolida)..... 4

**Узокова Шахноза Соибназаровна**

Лингвокультурное исследование модификаторов действия в художественном  
дискурсе (на примере английского и узбекского языков) ..... 30

**Uzokova Shakhnoza Soibnazarovna**

Linguocultural study of action modifiers in artistic discourse (based on the examples  
of the English and Uzbek languages) ..... 61

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UZOQOVA SHAXNOZA SOIBNAZAROVNA**

**BADIIY DISKURSDA VOQELANGAN HARAKAT**  
**MODIFIKATORLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**  
**(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va**  
**tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**  
**dissertatsiyasi avtoreferati**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1466 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.jspu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qo‘ldoshev Akram Mahmudovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Djumabayeva Jamila Sharipovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xayrullayev Xurshid Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning “ 5 ” aprel 2025-yil soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel: (998 71) 220-12-91; faks: (99869) 230-12-92; e-mail: info@uzswlu.uz). Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin( \_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21a. Tel: (998 71) 220-12-91; (99871) 230-12-92  
Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi. (2025-yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo tilshunosligida XXI asrga kelib milliy tillar taraqqiyotini belgilashda ularning o'ziga xos xususiyatlarini kognitiv hamda lingvokulturologik yo'nalishda o'rganish muhim masalalardan biriga aylandi. Badiiy diskursda konseptlar orqali ifoda etilgan milliy-madaniy dunyoqarash turli tillarda va madaniyatlarda turlicha namoyon bo'lib, bu jarayonda madaniy kodlar, qadriyatlar va urf-odatlar til vositasida tasvirlanadi. Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir. Modifikatorlar tilning semantik va pragmatik qirralarini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning badiiy matnlarda qo'llanilishi madaniy va milliy xususiyatlarni ifodalaydi.

Jahon tilshunosligida badiiy diskursda modifikatsiya jarayonining voqelanish qonuniyatlariga va uning muloqot jarayonida qo'llanilishini yoritish hamda kommunikativ maqsadni ro'yobga chiqaradigan lisoniy usullarni kognitiv-pragmatik va lingvomadaniy yo'nalishlarda tahlil qilishga doir ilmiy yo'nalishlar izchil amalga oshirilmogda. Natijada turli tillarning alohida sathlari zahiraviy imkoniyatlarini tavsiflashga oid ilmiy yo'nalishlar ko'lami kengayib bormogda. Harakat modifikatorlarining lingvokulturologik tadqiqi tillarning grammatik tuzilishlari orqali ifodalangan milliy va madaniy mazmunlarini to'la anglash hamda ikki xalqning dunyoqarashidagi madaniy xususiyatlarni chuqurroq tushunib olish imkonini beradi. Shu bois ingliz va o'zbek tillaridagi modifikatorlarning lingvokulturologik tahlili orqali ikki xalqning dunyoqarashini qiyosiy o'rganish zarurati mavjud, bu esa tilshunoslik nazariyasi va amaliy yo'nalishlarini boyitishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya doirasidagi tadqiqotlar asosan konseptualizatsiya sohasida amalga oshirilgan bo'lib, kategorizatsiya masalasida olib borilgan monografik tadqiqotlar nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Fe'llarning lokalis aktanti gapda o'rin holi vazifasida ifodalanishi<sup>1</sup>, harakat va holat makoni<sup>2</sup> modifikatsion strukturaning bir turi sifatida tadqiq qilingan. Shuningdek, gapga temporallik, modallik, personallik va boshqa qo'shimcha umumlashgan mavhum ma'nolarni yuklaydigan modifikatsion bosqich<sup>3</sup>, ya'ni harakat modifikatorlari garchi birmuncha o'rganilgan masalalardan bo'lsa-da, mazkur muammo badiiy diskursda funksional voqelanishi jihatidan hamda lingvokulturologiya nuqtai nazaridan hali yetarlicha o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm fanni

---

<sup>1</sup>Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. -86 bet.; Sharipova O'. O'zbek tilidagi yumush fe'llarining ma'no valentliklari. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. - Toshkent, 1996. -15 bet.

<sup>2</sup>G'ulomov A. G'. Sodda gap. - Toshkent: FAN, 1955. - 81 bet.; G'ulomov A.G'., Asqarova M. A. Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis. - Toshkent: O'OMDN, 1961. - 118 bet.

<sup>3</sup>Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent, 2007. - 9 bet.; Shorasulova Sh. Sodda gap tarkibidagi sifatdoshli qurilmalarning semantik-sintaktik tadqiqi: filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. - T., 2006. - 23 bet.

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar va 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaati, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi<sup>4</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Modifikatsiya muammosi jahon tilshunosligida umumiy va xususiy jihatlarida turli tillar materialida va turli fan yo'nalishlarida keng muhokama qilingan. Jumladan:

kognitivistikada N.D.Arutyunova, V.Z.Demyankov, V.I.Karasik, A.E.Kibrik, V.V.Krasnix, Y.S.Kubryakova, Y.V.Raxilina, O.N.Seliverstova, Y.S.Stepanov, R.M.Frumkina, M.Birvish, W.Croft, D.A.Cruege, G.Fauconnier, M.Johnson, G.Lakoff, R.Langacker, S.R.Levin, J.R.Taylor, M.Turner, A.Weirzbicka va boshqalar;

semantikada N.F.Alefirenko, Y.D.Apresyan, A.V.Bondarko, R.A.Budagov, Y.M.Volf, V.G.Gak, V.fon Gumboldt, I.M.Kobozeva, N.G.Komlev, A.I.Novikov, Y.V.Paduchev, Y.S.Stepanov, V.N.Teliya, E.V.Urison, A.A.Ufimseva, D.L.Bolinger, A.Weirzbicka;

diskurs nazariyasida M.M.Baxtin, V.G.Borbotko, I.R.Galperin, Y.M.Lotman, M.L.Makarov, G.G.Moskalchuk va boshqalar;

---

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar va 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaati.

Ingliz tilshunosligida badiiy diskursda voqelangan harakat modifikatorlarining umumiy masalalari, modifikatsiya kategoriyasining ayrim jihatlari, uni tavsiflash, tasniflash, harakat modifikatorlarining turi va ularning ifodalanish vositalari masalasi G.G.Pochepsov, L.S.Barhudarov, K.A.Guzeeva, S.I.Kostigina, J.Austin, J.Searle, Jacob L.Mey, R.Jackendoff, V.Evans, Ch.Pierce, J.Lyons, T van Deyk va boshqa olimlarning izlanishlarida u yoki bu darajada tadqiq qilingan<sup>5</sup>.

Rus tilshunosligida V.V.Burlakova, T.I.Ivanova, N.A.Kobrina, A.A.Xudiyakov, N.D.Arutyunova, S.D.Katsnelson, I.M.Kobozeva, N.N.Boldirev, Y.N.Kotelova, V.A.Maslova, V.M.Korneva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan<sup>6</sup>.

O'zbek tilshunosligida bu muammoning turli jihatlari M.Umarxo'jaev, A.Xojiev, A.G'ulomov, R.Rasulov, I.Rasulov, Sh.Raxmatullaev, G'.Abduraxmonov, Sh.S.Safarov, A.N.Nurmonov, M.Mirtojiev, N.Mahmudov, A.E.Mamatov, S.Muxamedova, R.R.Sayfullaeva va boshqalarning izlanishida o'z aksini topgan<sup>7</sup>. Ammo, bu tadqiqotlarda harakatni modifikatsiya qilish kognitiv jarayon sifatida hamda uning barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishida muhim ahamiyatga ega ekanligi yetarli darajada o'rganilmagan.

---

<sup>5</sup> Peirce Ch.S. "On a New List of Categories", Proceedings of the American Academy of Arts and Sciences 7 (1868). - 287-298 pp.; Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1966. - 200 стр.; Searle J. Expression and Meaning, Cambridge University Press, 1979. - 58 p.; Jacob L. Mey. Whose Language?: A study in Linguistic Pragmatics, Pragmatics & Beyond Companion Series, 3.1985. - 412 p.; Гузеева К.А., Костыгина С.И. Инфинитив. Грамматика английского языка. - СПб.: "Издательство Союз", 2008. - 320 стр.; Jackendoff, R. Semantics and Cognition. - Cambridge: MIT Press, 1983. - 123 p.; Lyons J. Language, Meaning, and Context. - London, 1981. 154 p.; Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. - М., 1989. - 311 стр.

<sup>6</sup>Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка: Учебник./ — М.: Высш. Школа. - 287 стр.; Н.А.Кобрина, Н.Н.Болдырев, А.А.Худяков. Теоретическая грамматика современного английского языка. М.: Высш. Школа. 2007. - 287 стр.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. - Москва: Язык славянской культуры, 2000. - 800 стр.; Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. - М.: Наука, 1990. - 220 стр.; Кобозева И.М. "Смысл" и "значение" в наивной семиотике. // Логический анализ языка: культурные концепты. М.: Наука, 1991, 183—186 стр.; Кобозева И.М. Грамматика описания пространства // Логический анализ языка. М.: Языки русской культуры, 2000. - 151-162 стр.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. - Томбовский Государственный Университет, 2014. - 236 стр.; Корнева В.В. Лингвистика на просторах пространства. Вестник ВГУ: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2006, № 1; Котелова Н.З. Избранные работы. СПб.: Нестор-История, 2015. - 276 стр.

<sup>7</sup>Umarxo'jaev M.J. Umumiy tilshunoslik. - Andijon: Jaxon inter print, 2010. - 84 bet.; G'ulomov.A.G'., Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. - T.: "O'qituvchi", 1965. - 14 bet.; Hojiyev.A. Fe'l. - O'zbekiston, Fan, 1973. - 5 bet.; Raxmatullaev Sh. O'zbek tilida tobe bog'lanish turlari. - Toshkent, 1993. - 24 bet.; Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). - T.: "O'qituvchi", 1996. - 92 bet.; Сафаров Ш. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц. - Ташкент: ТГПИ, 1983. - 97 стр.; Mirtojiev M. Gap bo'laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. - T.: "Universitet", 2008. - 182 bet.; Nurmonov A, Mahmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent, 2007. - 33 bet.; Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. - Ташкент: Фан, 2005. - 268 стр.; Rasulov R. Holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. - T.: Fan, 1989. - 25 bet.; Muhamedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi. - Toshkent, 2005. - 49 bet.; R.R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplarning substansional (zotiy) talqini - Toshkent, FAN, 2007. - 65 bet.

Tahlil qilib chiqilgan ishlardan farqli o'laroq, bizning tadqiqot ishimizda qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida voqelangan harakat modifikatorlari chog'ishtirma aspektida lingvomadaniy jihatdan tadqiqi amalga oshirildi. Modifikatorlar tilning semantik va pragmatik qirralarini chuqurroq anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning badiiy matnlarda qo'llanilishi madaniy va milliy xususiyatlarni ifodalaydi. Shu bois ingliz va o'zbek tillaridagi modifikatorlarning lingvokulturologik tahlili orqali ikki xalqning dunyoqarashi qiyosiy o'rganildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy lingvistika, adabiyotshunoslik, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy diskursda voqelangan harakat modifikatorlarining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

badiiy diskursda harakatni modifikatsiya qilishni kognitiv jarayon sifatida o'rganish;

ingliz va o'zbek tillarida harakat modifikatorlari vazifasini bajaruvchi til birliklarini strukturaviy va funksional-semantik jihatdan tahlil qilish;

harakat modifikatorlarining ingliz va o'zbek tillariga xos bo'lgan belgilaridagi o'xshashlik va farqlarning tabiatini yoritib berish;

qiyoslanayotgan tillardagi pre-modifikatsiyaning funksional-semantik tadqiqini amalga oshirish;

qiyoslanayotgan tillardagi post-modifikatsiyaning funksional-semantik tadqiqini amalga oshirish;

modifikatorlarni lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish orqali ikki lisoniy olam tasvirida til sohiblarining mental va madaniy xususiyatlarini aniqlash;

badiiy diskursni lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti sifatida o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursda qo'llanilgan harakat modifikatorlari xizmat qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursda qo'llangan harakat modifikatorlarining strukturaviy, semantik, funksional va lingvomadaniy tavsiflari tanlangan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada diskursiv, tahliliy-tavsifiy, chog'ishtirma usullar, konseptual semantikaning komponent, kombinatorik usullari va lingvomadaniy tahlil elementlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

badiiy diskursdagi harakat modifikatorlarining funksional jihatdan foydalanilishining, ya'ni subyektiv ma'no yuklash, estetik ta'sir yaratish, vaqt va makonni aniqlashtirish, harakatning darajasini ko'rsatish kabi xususiyatlari diskursiv tahlil orqali ochib berilgan;

o‘rganilayotgan tillar misolida modifikatsiya tushunchasi, uning turlari va badiiy diskursda qo‘llanilgan harakat modifikatorlarining kontekstual-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali inson va voqelik munosabatida yuzaga keladigan mental tasavvurga ko‘ra ingliz tilida dunyoni bilishda egalik modeli, o‘zbek tilida esa ekzistensial model ustuvorlik kasb etishi makon modifikatorlarining chog‘ishtirma tahlili orqali isbotlangan;

tadqiq etilayotgan tillar badiiy diskursida qo‘llangan pre-modifikatsiya, post-modifikatsiyaning turli shakl va mazmundagi matnlarda voqelanish qonuniyatlarining lingvomadaniy belgilari ikki tildagi yadroviy gaplarning qanday kengaytirilishi, aniqlashtirilishi, tavsiflanishi, kuchaytirilishini tahlil qilish orqali aniqlangan;

harakat modifikatorlarining valentlik, kombinatorika va shu kabi boshqa tur ma‘no va vazifani bajaruvchi modifikatorlar bilan matnda kommunikativ intensiyasiga ko‘ra bog‘lanish jarayonida semantik, diskursiv, reflektiv, reprezentiv, intensivlik va ekspressivlik kabi potensial imkoniyatlari dunyo haqidagi bilimlarni tasniflash va obyektivlashtirish orqali dalillangan va natijada tildan foydalanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan dunyoning konseptualizatsiyasi badiiy diskursda namoyon bo‘lishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy diskursdagi harakat modifikatorlarining funksional imkoniyatlari va semantik xususiyatlarini o‘rganish orqali bu til elementlarining funksional-semantik samaradorligi ko‘rsatib berilgan;

harakat modifikatorlarining badiiy diskursdagi o‘ziga xos va o‘xshash jihatlari, shuningdek modifikatorlarning tildan foydalanuvchi turli shaxslar tomonidan gap strukturasi semantik va grammatik jihatdan idrok etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

makonni reprezentatsiya qilishda modifikatsion modellar (makoniy model, egalik modeli va ekzistensial model) ishlab chiqilgan va ushbu modellardan 3 bobda makon modifikatorlarining konseptual-semantik tahlili amalga oshirilgan;

ingliz va o‘zbek tilida dunyoni bilishda modifikatsion modellarni qo‘llash orqali xalq tafakkuri, xulqi, hayot tarzi va yashash strategiyasining belgilari aniqlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning tahliliy-tavsifiy va chog‘ishtirma usullar bilan asoslanganligi, ishda qo‘llangan yondashuv va usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi, nazariy xulosalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy grammatikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, monografiyalar, oliy ta‘lim muassasalari va akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalari yozishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tilshunoslikni ingliz va o‘zbek tillaridagi modifikatsiyaning til tizimidagi mavqei, kognitiv xususiyatlari haqida ilmiy-nazariy bilimlar bilan boyitadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati filologiya yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar va tarjimonlar uchun amaliy qoʻllanma chogʻishtirma tilshunoslik, kognitiv grammatika kabi maxsus kurslar boʻyicha maʼruza matnlarini tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va oʻzbek tillari badiiy diskursida voqelangan harakat modifikatorlarining lingvomadaniy belgilarining tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

badiiy diskursdagi harakat modifikatorlarining funksional jihatdan foydalanilishining, yaʼni subyektiv maʼno yuklash, estetik taʼsir yaratish, vaqt va makonni aniqlashtirish, harakatning darajasini koʻrsatish kabi oʻziga xos xususiyatlari ochib berilishiga doir xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida 2021–2022-yillarda amalga oshirilgan “Oʻzbek harbiy sanʼati tarixi” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 10-maydagi 10/768-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy taʼlim muassasalari uchun “Chet tillari” fan dasturini hamda oʻquv materiallarini takomillashtirishga erishilgan;

oʻrganilayotgan tillar misolida modifikatsiya tushunchasi, uning turlari va badiiy diskursda qoʻllanilgan harakat modifikatorlarining kontekstual-semantik xususiyatlari asoslangan holda, ingliz tilida dunyoni bilishda egalik modeli, oʻzbek tilida esa ekzistensial model ustuvorligi makon modifikatorlarining chogʻishtirma tahlili orqali isbotlanganiga oid xulosalardan Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020–2022-yillarda bajarilgan “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzgʻunchi gʻoyalarga qarshi maʼrifiy, tarbiyaviy kurash asoslarini oʻzida jamlagan multimediya dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi Ф3-202002146 raqamli amaliy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasining 2023-yil 15-maydagi 05-712-son maʼlumotnomasi). Natijada mazkur xususiyatlar aks etgan virtual resurslar shakllantirilib, bevosita taʼlim jarayoniga tatbiq etilgan;

tadqiq etilayotgan tillar badiiy diskursida voqelangan pre-modifikatsiya, post-modifikatsiya kabi modifikatsiya turlarining lingvomadaniy belgilari borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”ning 35-bandida oʻz aksini topgan (Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 19-iyundagi 05-12-34-4217-son maʼlumotnomasi). Natijada 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga bagʻishlangan beshinchi ustuvor yoʻnalishda belgilangan maqsadlarni bevosita roʻyobga chiqarishga xizmat qilgan;

harakat modifikatorlarining boshqa tur maʼno va vazifani bajaruvchi modifikatorlar bilan kombinatorikasi jarayonida semantik, diskursiv, refleksiv, reprezentiv, intensivlik va ekspressivlik kabi potensial imkoniyatlariga bagʻishlangan xulosalardan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yoʻnalishida belgilangan “Yoshlar

tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda adabiyot, madaniyat, san'at namunalaridan keng foydalanishning artpedagogik asoslarini tadqiq qilish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda samarali foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 13-iyundagi 02-22/569-son ma'lumotnomasi). Natijada chora-tadbirlar dasturidagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish" nomli 34-bandida ko'zda tutilgan vazifalar ijrosi ta'minlanib, tarbiya jarayonida modifikatorlar orqali nutqning ta'sirchanligini oshirish, hissiy va axloqiy mazmunni to'liq yetkazilishi aniqlangan. Bu jarayonda modifikatorlar ota-onalar va tarbiya beruvchi shaxslar nutqining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr qilingan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati hamda ishda foydalanilgan modellar (jadvallar)dan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 159 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob "*Tilshunoslikda modifikatsiya tushunchasining nazariy asoslari*" deb nomlanib, uning dastlabki faslida "*Modifikatsiya tushunchasining kognitiv tilshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyati*" mavzusi yoritilgan.

So'nggi o'n yilliklarda kognitiv tilshunoslikka doir olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar diqqat markazida inson ongida paydo bo'ladigan bilim, tasavvur usullari va shuningdek, til birliklarining konseptual mohiyati jamlangan. Konseptual mazmun tilning turli qatlamlari orqali beriladi. Ammo tilshunoslarning ta'kidlashlaricha, konseptual ma'lumotning eng muhim qismi, til nuqtayi nazaridan eng ahamiyatli ma'no-mazmunlar grammatikada, eng avvalo, morfologiyada to'plangan<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup>Abduazizov A. A. va b. Tilshunoslikka kirish. 2-qism. Leksikologiya va semasiologiya. Grammatika. - Toshkent: O'qituvchi, 1999. - 57 bet.; Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. - Л.Ю: Наука, 1988. - 238 стр.; Ааматов А.М. О парадигматике английских каузативных конструкций // Семантические отношения и структура аргументов. - Казань: КГУ, 2004. - 260-262 стр.;

Shuning uchun ham tilda konseptual mohiyat tushunchasining alohida usuli sifatida morfologik reprezentatsiyani alohida ajratib olish va unga ilmiy ta'rif va tasnif berish muhimdir<sup>9</sup>. Bu esa morfologiyaning roli haqidagi masalani yangicha qo'yish, tilda bilim tushunchasi muammosiga, morfologiyani kognitiv jihatdan o'rganishga boshqacha yondashish imkonini beradi. Morfologiyaning kognitivligi masalasi, avvalambor, funksional (A.V.Bondarko, N.A.Kobrina, E.S.Kubryakova, N.A.Slyusareva), semiologik (Y.S.Stepanov) va funksional-semiologik grammatikaning (N.N.Boldirev) so'nggi paytlarda yaratilgan nazariyalariga tayanadi.

Tadqiqotimizdagi asosiy masalalarni belgilab olish Y.S.Kubryakovaning "morfologiyaning bilish jarayonlari bilan bog'liqligi va bu jarayonlarning natijalarini aks ettirish hamda yetkazish uchun xizmat qilishi kerak" degan fikridan kelib chiqadi. Shu asnoda "morfologiya funksiyalari morfema darajasida emas, balki so'zlarning turli sinflarini ifodalovchi to'liq morfologik tizimlarida aniqlanadi"<sup>10</sup> deydi.

Leksika dunyo tasvirini bevosita aks ettiradi hamda ma'lum tilda so'zlashuvchi til guruhlari tomonidan amaliy o'rganilgan va o'zlashtirilgan til unsurlari inson ongi yordamida nutq aktida voqelanadi. Dunyo tasvirini anglashda nafaqat uning alohida tarkibiy qismlarini o'rganish, balki ular o'rtasidagi murakkab tabiatli aloqa va munosabatlarni ham o'rganish nazarda tutilgan<sup>11</sup>. Bu holat sintaksis yordamida amalga oshiriladi. Til ham real dunyoning obyektlaridan biri sifatida voqelanadi. Bu maqsadlar uchun morfologiya xizmat qiladi.

Aynan shunday holatda fiksatsiya, klassifikatsiya, modifikatsiya va dunyo haqidagi tushunchalarning ma'lum kategoriyalari bo'yicha ajratilishi va morfologiyada konseptlar va so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik tabiati aniqlanadi.

---

Аракин В.Д. К типологии объектных словосочетаний в германских языках // Вопросы английской лексикологии. – М.: МГПИ, 1974. – 110-130 стр.; Архангельская А.М. Предложные сочетания в составном сказуемом: автореф.дис... канд. филол.наук. – М.: МГУ, 1960. – 24 стр.; Ахманова О. С., Микоян Г. Б. Современные синтаксические теории. - М.: МГУ, 1963. – 140 стр.; Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. - М.: СЭ., 1969. – 608 стр.

<sup>9</sup>Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 286 bet.; Бондарко А.В. Грамматическое значение и смысл. – М.: Наука, 1988. – 238 стр.; Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения. (Семиологическая грамматика) – М.: Наука, 1981. – 360 стр.; Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. - М.: ИЛ, 1957. – 286 стр.; Беляевская Е.Г. Интерпретация знаний о мире в языке: методы изучения - в сб: Теоретические основы языковой интерпретации. – Тюмень, 2016. – 82–158 стр.; Болдырев Н.Н. Язык как интерпретирующий фактор познания. - в сб: Теоретические основы языковой интерпретации. – Тюмень, 2016. – 19–81 стр.

<sup>10</sup>Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М., 2006, - 750 стр.; Беляева Л.М. Свободные глогольные словосочетания в современном английском языке: автореф.дис...канд.филол.наук. – М.: МГУ, 1962. – 24 стр.; Ахманова О.С., Микоян Г.Б. Современные синтаксические теории. - М.: МГУ, 1963. – 140 стр.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: СЭ., 1969. – 608 стр.; Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 447 стр.; Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. – М: Русские словари, 1996. – 316 стр.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – 2001. – №1. – 64–72 стр.

<sup>11</sup>Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. – Л.ЛЮ: Наука, 1988. – 238 стр.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М.: СЭ., 1969. – 608 стр.; Шведова Н.Ю. Грамматика современного русского литературного языка. – М.: Наука, 1970. – 767 стр.; Гудкова Е.А. Приглагольный инфинитив–обстоятельство в современном английском языке: дис... канд.филол.наук. – М., 1984. – 142 стр.; Блох М.Я. Теоретические основы грамматики. – М.: Высшая школа, 2002. – 148 стр.; Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 1968. – 607 стр.; Булыгина Т.В. Шмелев А.Д. Языковая концептуализация мира. (на материале русской грамматики). М.: 1997. – 324 стр.; Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. - М: Русские словари. 1996. – 316 стр.

Morfologiyaning bazaviy tushunchalaridan bo‘lgan modifikatsiyaning kognitiv jihatlarining o‘ziga xos ahamiyatini ta’kidlagan holda Y.S.Kubryakova bu narsa, ya’ni modifikatsiya “so‘zlovchining biror holatni tasvirlashda uning e’tiboridan chiqib keta olmaydigan tafsilotlar” va “dunyo til tasvirida inson tajribasidan nimalar o‘z aksini topgan va tasnif qilingan”ligi uchun ko‘p muhim masalalarning mohiyatini aniqlashda katta yordam beradi, deb xulosa qiladi<sup>12</sup>.

Morfologik reprezentatsiya morfologik kategoriya va shakl yordamida konseptual mazmuni strukturalashtirishning kategorial uslubi tushunchasi hamda morfologiyaning konseptual tizimining eng muhim tomonlari kategorizatsiyasini aks ettiradi va konseptual kenglikni tashkil etuvchi, uning tartibini belgilovchi fundamental konseptlarni, butun konseptual tizimni modifikatsiya jarayoni orqali voqelantiradi. Morfologik reprezentatsiyaning amalga oshuviga misol tariqasida konseptlarga, masalan, zamon, makon va munosabat kabi mantiqiy va grammatik konseptlarni kiritish mumkin.

Kognitiv mexanizmlar va morfologik reprezentatsiya, shu jumladan, modifikatsiya xususiyati tahlili quyidagilarni qayd etishga imkon beradi:

modifikatsiya morfologik reprezentatsiyaning asosiy kognitiv mexanizmi hisoblanadi;

modifikatsiyada morfologik kategoriya va shakllar til ifoda vositalari sifatida ishlatiladi;

umumiy konsept mazmunidagi morfologik konseptlarning shakllanishi asosidagi mavhum xususiyatlarning modifikatsiya qilinishi nutq mahsulotini yaratishga qo‘yilgan muhim qadamdir;

morfologik qiymatlarning kontekstual aniqligi hukm gaplar darajasida modifikatsiya, predikatsiya kabi qo‘shimcha lisoniy omillar ishtirokida amalga oshiriladi, bu esa kontekstda turli grammatik-leksik ma'nolarning morfologik shakllarini muloqot niyati va nutq maqsadlariga mos holda muntazam ravishda yasalishiga olib keladi.

morfologik reprezentatsiyaning, ya’ni modifikatsiyaning kognitiv asosini morfologik konseptlar tashkil etadi.

Morfologik konsept bu – bir qator morfologik shakllar orqali ifodalangan, tilda dunyo tasvirini yaratib beruvchi bilim birligi bo‘lib, ensiklopedik bilimni tilda reprezentatsiya usuli bilan voqelantiradi. Ushbu ta’rif morfologik konseptning asosiy tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, va bu bir tomondan, kognitiv nuqtayi nazardan tilda konseptning morfologik reprezentatsiyasini ko‘rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, bunday yo‘nalishdagi izlanishlar uchun asos yaratib beradi.

Modifikatsiyaning morfologik reprezentatsiya sifatida ko‘rib chiqilgan qonuniyatlari dunyo haqidagi bilimlar tasnifi va obyektivlashtirishda uning o‘rni to‘g‘risida quyidagi fikrlar keltirildi. Morfologiya birinchi o‘rinda morfologik

---

<sup>12</sup>Ахманова О.С., Микоян Г.Б. Современные синтаксические теории. - М.: МГУ, 1963. – 140 стр.; Демьянков В.Г. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // ВЯ., 1994. – 17 - 33 стр.; Демьянков В.Г. Когнитивизм, когниция, язык и лингвистическая теория // Язык и структуры представления знаний. – М., 1992. - 82 стр.; Иевлева М.Х. Базисные концепты ментального мира человека. - Уфа, 2002. – 160 стр.; Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. – Архангельск. – 32 - 46 стр.

kategoriyalar va shakllar yordamida dunyo haqidagi bilimning asosiy qismini til orqali mujassamlashtiradi. Shu tariqa morfologiya o‘ziga xos avtonom bo‘lmagan til qatlamini tashkil etadi, bu esa kognitiv grammatikadagi leksikon, morfologiya va sintaksis kabi belgili tizimlarning kontinuumini tashkil etadi. Morfologik kategoriyalar modifikatsiya jarayonida ular beradigan umumlashgan ma’nolar “koordinatalar matrisasi”ni yaratadi va ular ta’sirida inson tomonidan dunyoning konseptualizatsiyasi amalga oshiriladi.


Bobning ikkinchi faslida “*Modifikatsiya tushunchasini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari*” masalasiga e’tibor qaratiladi. Inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo‘lishi ham tabiiydir.

Har qanday madaniyat atrof-muhit ta’sirida taraqqiy qilib, o‘zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o‘rinda voqelikni moddiy va ma’naviy o‘zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi. Bunday farqning asosida o‘zlashtirilayotgan obyekt yoki bu faoliyat mahsuli emas, balki ushbu moddiy-ma’naviy o‘zlashtirish jarayoni qanday yoki qay uslubda kechayotganligi yotadi.


Kategoriyalashtirish faoliyatining madaniy-milliy xususiyatlarini, uning bevosita madaniy muhit bilan bog‘liq tomonlarini ilmiy asoslashga birinchilardan bo‘lib harakat qilishgan tilshunos olimlar Vilgelm fon Humboldt va Eduard Sepirlardir. Ular milliy tillar lug‘at va grammatik tizimlari o‘rtasidagi farqni til sohiblari – insonlarning voqelikni qabul qilish va idrok etishidagi farq bilan bog‘lashga harakat qilishgan. V.Humboldt turli millat va madaniyat vakillarining voqelik haqida tasavvuri mos kelmasligini isbotlamoqchi bo‘ladi. «Turli tillar – yagona bir predmetning turlicha nomlanishidan ko‘ra, ushbu predmetni turlicha ko‘rish, idrok etishdir»<sup>13</sup>. Voqelikni turlicha «ko‘rish» hamda kategoriyalashtirish, ayniqsa, grammatik tizimlar qiyosida aniq namoyon bo‘ladi.

1.3 - jadval

Modifikatsiya jarayonini lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilishning asosiy jihatlari



<sup>13</sup>Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984. - 112 стр.



Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan **modifikatsiya** – olamning inson ongida to'liq in'ikos etishini ta'minlovchi mental jarayondir. Inson o'zini qurshab olgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bu vazifani bajarishda insonga modifikatsiya jarayoni yordam beradi, chunki dunyo, borliq bu ibtidoiy, sodda dunyo emas. Tillardagi so'zlar borliqdagi barcha narsa, hodisa yoki sifat, xossa-xususiyatlarni ifoda qilib bera olmaydi. Hatto mana shu kamchilikni bartaraf qilish uchun yaratilgan ko'pma'nolilik ham bu vazifani to'la-to'kis bajara olishga qodir emas. Inson miyasi borliqdagi barcha hodisa, narsa, belgi va h.k.larning har biriga alohida nom berib uni xotirada saqlay olmaydi, inson miyasi bunga qodir emas va ikkinchi tomondan, bunga ehtiyoj ham yo'q. Modifikatsiya jarayoni tilning bilish vazifasini bajarishini ta'minlovchi yagona hamda asosiy qurol va vositadir.

“*Modifikatsiya va predikatsiyaning til sintaktik strukturasiidagi funksional-pragmalingvistik xususiyatlari*” nom ostidagi faslda modifikatsiya va predikativlikka mantiqiy yondashish masalalari tahlilga tortiladi. Semantik strukturaning original konsepsiyasi P.Susov tomonidan ilgari surildi. Uning qarashicha, inson ongida umumlashgan vaziyatga ichki til shakllari mos qo'yiladi. Uni hosil qilish uch bosqichda bo'ladi. Dastlab, umumlashgan vaziyatga muvofiq bo'lgan tuzilishni hosil qiluvchi relatsion bosqichdan iborat. Relatsion strukturaga subyekt-predikat munosabatini qo'shadigan predikatsion bosqich, va keyin esa predikatsion strukturaga temporallik, modallik, personallik va qo'shimcha boshqa ma'nolarni yuklaydigan modifikatsion bosqich amalga oshadi<sup>14</sup>.

Lingvistikadagi semantik tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, til birliklarining shakl va mazmun tomondan tavsifi ham tilni to'liq izohlashga imkon bermaydi. Til birliklarini kontekst nutq vaziyati bilan bog'lab o'rganishgina ularning ma'nosini to'g'ri tushinishda katta imkoniyat beradi. Bu esa til birliklarining pragmatik tomoniga qiziqishini kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning “*Badiiy diskurs lingvokulturologik tadqiqot materiali sifatida*” deb nomlangan to'rtinchi faslida badiiy diskurs lingvokulturologik nuqtai nazaridan yoritilgan. XX asrning so'ngi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va resipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish diskurs tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Lingvokulturologiyaning bevosita diskurs bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, diskurs ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokulturologiya” darsligining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning

<sup>14</sup>Сусов И.П. Семантическая структура предложения. – Тула, 1973. – 16 стр.

haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, diskurs til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga, u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir”<sup>15</sup>.

Diskurs matni kommunikatsiyada, dinamik holatda, sotsiomadaniy kontekstda, lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida, lisoniy va nolisoniy axborotda (olam, hodisalar haqidagi bilim, fikr, qadriyatlar) ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi murakkab kommunikativ - kognitiv hodisadir<sup>16</sup>. Sanab o‘tilganlar diskursni tushunish, qabul qilish va talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. Diskursning o‘ziga xosligi muallif tomonidan modellashtiriluvchi o‘zgacha olamning badiiy manzarasini obrazli shaklda ifodalay olishidir. Shu ma'noda diskurs kommunikasiyaning eng murakkab turlaridan biri bo‘lgan badiiy-adabiy muloqotning bir turi sifatida namoyon bo‘ladi.

Diskurs maqomidagi nutqiy tuzilmani tadqiq etishda shaxs, ya'ni adresat va adresantning lisoniy, kognitiv, pragmatik, psixologik faoliyati, nutq akti bajarilayotgan voqelik, shuningdek, nutq akti ishtirokchilarining bevosita va distant muloqoti hamda diskurs tuzish jarayonini modellashtirish, diskursda jamlangan ijtimoiy-madaniy axborot masalalari asosiy o‘rinni egallaydi<sup>17</sup>.

Badiiy diskurs — bu badiiy matnlar orqali namoyon bo‘ladigan til hodisasi bo‘lib, u muallifning estetik maqsadlarini ifodalash bilan birga madaniy merosning tilda qanday aks etganini ham ko‘rsatadi. Badiiy diskurs tahlil qilinayotganda, nafaqat tilning lingvistik jihatlari, balki unda aks etgan madaniy va ijtimoiy elementlar ham o‘rganiladi. Shu ma'noda, badiiy diskurs lingvokulturologik tahlil uchun boy material hisoblanadi.

Badiiy asarlarni to‘liq tushunish uchun u yaratilgan davr, xalqning madaniyati, an‘analari va tarixiy sharoitini e‘tiborga olish zarur. Har bir milliy madaniyat o‘ziga xos madaniy belgilar tizimiga ega bo‘lib, ular badiiy matnlarda aks etadi. Bular milliy identifikatsiyaning lingvistik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shuningdek, badiiy diskursda muallifning lingvistik tanlovlari madaniyatga xos bo‘lgan qadriyatlarni aks ettirishi mumkin.

Shu tarzda muloqot ishtirokchilarining lisonida mavjud bo‘lgan makon va zamoni tasvirlashda ishlatiladigan modifikatorlarni tadqiq qilish orqali insonning borliq haqidagi tasavvurlari, xalq va uning tarixi, urf-odatlar, an‘analari haqida axborotga ega bo‘lamiz.

Ishning ikkinchi bobi “*Ingliz va o‘zbek tillaridagi harakat modifikatorlarining diskursda voqelanishining asosiy xususiyatlari*” deb nomlanib, uning birinchi fasli “*Ingliz tilida harakat modifikatsiyasining asosiy tushuncha va tamoyillari*”ga bag‘ishlangan. Modifikatsiya termini tilshunoslikka Amerika deskriptivistlari tomonidan olib kirilgan bo‘lib, u transformatsion-generativ lingvistika orqali kognitiv tilshunoslikka kirib keldi.

---

<sup>15</sup>Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 74 стр

<sup>16</sup>Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 286 bet.

<sup>17</sup>[http:// www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru): Diskurs.

Kognitiv tilshunoslikda *modifikatsiya* soʻzlovchi tomonidan nutq mahsuloti yaratilayotgan jarayonda borliqdagi voqea, hodisa yoki narsaning nutq momentidagi holatidan kelib chiqib, qandaydir yangi belgi, xossa, xususiyatni qoʻshish, narsa, voqea yoki hodisa haqida yangi axborotni kiritish jarayoniga aytiladi. Modifikatsiya tushunchasi tilshunoslikda predmetning maʼnosi, belgisi, sifati-xususiyati hamda unda roʻy beradigan turli xarakterdagi oʻzgarish va oʻziga xoslikni bildiradi. Shu boisdan u tilshunoslikda uchta asosiy tushunchani oʻz ichiga oladi.

1. Determinatsiya. 2. Atributivlik. 3. Adverbial Modifikatsiya<sup>18</sup>.

Determinatsiya (Determination) tushunchasi ingliz tilidagi determinativlar deb ataluvchi soʻzlar guruhi tomonidan bajariladigan funksiya boʻlib u ingliz tilida artikllar, egalik olmoshlari, noaniq olmoshlar, koʻrsatish olmoshlari, inkor olmoshi kabilar tomonidan amalga oshiriladi, masalan *a, an, the, my, his, her, our, your, their, some, any, no* va h.k. Oʻzbek tilida determinativlar mavjud emas.

Atributivlik ingliz tilidagi attribute va oʻzbek tilidagi “aniqlovchi”ga mos keladi. Atributiv modifikatsiyaning ikki turi bor: pre-modifikatsiya va post-modifikatsiya. Oʻzbek tilida atributiv aloqaga kirishgan soʻzlarning oʻzaro funksional vazifalari bor. Aniqlovchi va aniqlanmish, yaʼni modifier and modificant ular bosh soʻz va tobe soʻz oʻrtasidagi munosabatni bildirishi uchun ishlatiladi.

Adverbial modifikatsiya ingliz tilidagi Adverbial Modifer, oʻzbek tilidagi “hol” gap boʻlagiga mos keladi.

Modifikatsiyaning bu uch turi bir-biridan faqat nomi va u bilan bogʻlanib kelayotgan soʻzning tabiati bilangina farqlanib qolmay, soʻzlar oʻrtasidagi aloqaning turi bilan ham farqlanadi. Modifikatsiya turli tobelik maʼnosini bildiruvchi sintaktik aloqa yordamida birikkan soʻz birikmalarida kuzatiladi. Taʼriflash modifikatsiyasi moslashuv aloqasini bildiruvchi sintaktik strukturalarda ham kuzatiladi.

Ingliz tilidagi modifikatsiya kuzatiladigan strukturalarni koʻrib chiqamiz:

Ot tarkibli soʻz birikmalar. sifat+ot: *fine weather, beautiful picture, sunny smile, fresh fruit, white fang*; ot+ot: *world peace, space flight, computer games, morning star, gold watch*; olmosh+ot: *my neighbour, his duty, our office, their job*; son+ot: *ten days, eleven players, the first lady, thousand year*; ravish+ot: *the then methods, the above examples*; sifatdosh I+ot: *running boys, playing coach, amusing stories*; sifatdosh II+ ot: *broken vase, faded leaves, returned soldiers, the wanted man, the haunted patriot*.

Ingliz tilidagi modifikatorlarning hokim-tobelik munosabati va ularning birikmadagi oʻrniga qarab 2 turga boʻlinadi. 1. Pre-pozitiv modifikatorli birikmalar (tobe+hokim). 2. Post-pozitiv modifikatorli birikmalar (hokim-tobe). Prepozitiv modifikatsiyaga misollar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

*Many a time he had tried to think that in old days of thwarted married life; and he always failed* (P.F.Ross. California. p.93). Bu yerda biz quyidagi modifikatsiyali birikmalarni uchratamiz: *many a time* (prepozitiv modifikatsiya), *old days* (prepozitiv modifikatsiya), *thwarted, married life* (prepozitiv modifikatsiyali birikma). Lekin *old days of thwarted married life* (post-pozitiv modifikatsiyali struktura).

---

<sup>18</sup>Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М., 2006, - 203 стр.

Hokim soʻzdan keyingi pozitsiyada ishlatilgan sifat-postmodifikatorlar: *heir male* (erkak merosxoʻr); *heir female* (ayol merosxoʻr); *heir apparent* (yagona, mutlaq merosxoʻr); *issue male* (muhokama qilingan erkak); *the bride elect* (tanlab olingan kelin); *life matrimonial* (voyaga yetgan odam-fuqaro hayoti, turmush tarzi); *court martial* (kommendantlik soati); *proof positive* (tasdiqlovchi asos, hujjat, fakt, isbot); *finances public* (ijtimoiy mulk shakllari); *finances private* (shaxsiy mulk shakllari), *money due* (toʻlanishi kerak boʻlgan summa); *sign manual* (oʻz qoʻli bilan qoʻyilgan imzo); *occasions extraordinary* (gʻayri oddiy shart-sharoitlar); *from times immemorial* (juda qadim zamonlardan, insonlar esini tanigan paytlardan).

Ingliz tilidagi *-ible*, *-able* qoʻshimchali sifatlar koʻp hollarda post-pozitiv modifikator sifatida ishlatiladi. Masalan: *the thing possible*, *her fingers glittered with rings innumerable*, *thing immortal*, *mistress good*, *vision beautiful*, *the orders bright*, *the only thing imaginable*, *the best analysis possible*.

*Likely+* infinitiv tarkibli birikmalarda post-pozitiv modifikatsiya kuzatiladi. *She was the last person likely to be found in the garden. He expressed his feelings in language softer and more pensive than we should have expected.*

Boshqa misollar: *a laugh musical but malicious*; *calculations quick and anxious*; *passed through his brain*; *September last*; *December next*; *people worthy of our epoch*; *a man worthy to be praised*; *a thing easy to please*; *a man careful of others*.

Soʻzlovchi yoki yozuvchi modifikatsiyani amalga oshirishi uchun, avvalo, chuqur bilimga ega boʻlishi kerak. Bu bilim quyidagi sohalarni qamrab oladi: avvalo, u ishlatmoqchi boʻlgan soʻzning barcha faol va nofaol leksik maʼnolarini bilishi zarur. Shuningdek, soʻzning pragmatik jihatlarini, yaʼni uni qaysi diskurslarda ishlatish yoki ishlatmaslik kerakligini yaxshi tushunishi muhim. Soʻzlovchi yoki yozuvchi nutq akti sodir boʻlayotgan ijtimoiy va tarixiy kontekst haqida ham xabardor boʻlishi lozim. Ishlatmoqchi boʻlgan maʼnoning amaliyotda tekshirilgan, mantiqan tasdiqlangan yoki tasdiqlanmaganligini bilishi ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, u yoki bu modifikatorni qoʻllash orqali tinglovchi yoki oʻquvchi ongida kerakli tasavvurlarni shakllantira olishiga va ifoda qila olishiga ishonch hosil qilishi kerak. Modifikatsiya jarayoniga jalb etilgan leksik birliklar shu tilda soʻzlashuvchi kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlariga mos kelishi kerak. Modifikatsiyaning maqsadi esa tinglovchi yoki oʻquvchining tafakkurida voqelikni adekvat, toʻgʻri va mantiqiy izchillikda aks ettirishdan iborat.

“Oʻzbek tilida modifikatsiya kategoriyasining asosiy tushuncha va tamoyillari” deb nomlangan faslda esa oʻzbek tilidagi modifikatsiya kategoriyasining asosiy tushunchalari oʻrganildi. Modifikatsiya termini odatda gap soʻz birikmasi va gap haqida borganda ishlatiladi. Bu operatsiya alohida olingan soʻz darajasida qoʻllanilmaydi. U faqat kamida ikki soʻz yoki ikki gap biror bir hukmni ifoda qilish uchun birikkanda paydo boʻladi. Modifikatsiya bunday aloqalardan faqat moslashuvda va bitishuvda kuzatiladi. Soʻzlar oʻrtasidagi sintaktik aloqaning yana bir guruhlanishi borki, unga koʻra soʻzlar oʻrtasida quyidagi munosabat turlari mavjud: 1) predikativ aloqa; 2) atributiv aloqa; 3) obyektiv aloqa; 4) adverbial aloqa.

Bu aloqa turlaridan atributiv va adverbial aloqalari kuzatilgan strukturalar modifikatsiya strukturalari deb qabul qilinadi. Modifikatsiya tillarda turli soʻz turkumlari tomonidan voqelanishi mumkin. Oʻzbek tilida atributiv modifikatorlarning ikki guruhi mavjud: 1) Atributiv modifikatsiya; 2) Possesiv modifikatsiya.

Atributiv modifikatsiya quyidagi soʻzlar bilan voqelanadi. Sifat bilan: *ulugʻ davlat, koʻk futbolka, keng dalalar, baland togʻlar*; sifatdosh bilan: *oqar suv, tushungan odam, gullagan vodi, oʻrmon bilan oʻralgan qishloq*; ravish bilan: *shuncha ish, ancha tashvish*; son bilan: *oʻnta askar, oʻttizta chegarachi, toʻrt guvoh, oʻn ikki viloyat*; koʻrsatish va soʻroq olmoshlari bilan: *qaysi jamoa?, oʻsha oʻyin, narigi maydon, bu koʻcha, anavi bola*; sifatlashgan otlar bilan: *anor yuz, bodom qovoq, yassi tepalik, oltin yaproqlar, oltin kuz, temir xotin, temir iroda*; undov soʻzlar bilan: *gʻir-gʻir shamol, shaldir-shuldir yigit, jarang-jurung ovozi, shiq-shiq tugma, paq-paq oʻrik va boshqalar*.

Possesiv modifikatsiya quyidagi soʻzlar bilan voqelanadi:

1. Qaratqich kelishigidagi ot, shu vazifada keluvchi olmosh bilan: *Abdulla Qodiriyning haykali, mahallaning idorasi, Doʻsmat polvonning yeri, uning xatosi, Kataloniyaning poytaxti va h.k.*

2. Otlashgan soʻzlar bilan: a) otlashgan sifat bilan: *ilgʻorlarning tajribasi, liderlarning yutugʻi, orqadagilarning shovqin-suroni, pakananing afti-basharasi*; b) otlashgan son bilan: *oʻnning yarmi beshdir, Birniki minga, mingniki tumanga*; v) otlashgan feʼl bilan: *Oʻqiganning tili koʻp uzun boʻladi* (Poʻlkan). g) otlashgan olmosh bilan: *Qaysingizning onangiz doktor boʻlib ishlaydi? Buningning tili bir qarich, nima, bilmasmiding?* (S.Ahmad).

Sifat yordamida voqelangan modifikator bilan sifatdosh yordamida voqelangan modifikatorning bir – biridan ajratib turadigan bir qancha farqlar bor. Bu farqlar asosan quyidagi holatlarda namoyon boʻladi:

1) Sifat bilan voqelangan modifikator predmetning turgʻun, passiv belgisini bildiradi, sifatdosh – modifikator narsaning ish – harakatga oid faollik belgisini ifodalaydi.

2) Sifatdosh bilan voqelangan modifikator predikativlik elementiga ega, chunki u aslida feʼldir. Sifat bilan ifodalangan modifikator bu xususiyatga ega emas. *Yosh bola – chopayotgan bola*.

Demak, sifatlash, qaratish va izohlash funksiyalari modifikator tomonidan modifikatsiya obyekti boʻlmish leksik birlikni maʼnosini toraytirish, konkretlashtirish, aniqlashdan, umuman predmetning belgisini aniqlashdan iborat.

Ushbu bobning uchinchi fasli “*Ingliz va oʻzbek tillari harakat modifikatorlarining diskursda voqelanish xususiyatlari*” deb nomlanadi. M.E.Umarxoʻjaevning bergan taʼrifiga koʻra “**modifikatorlar** gapdagi soʻz, soʻz birikmalarining maʼnosini izohlab, tushuntirib, aniqlab kelmaydi, balki ularga oid qoʻshimcha maʼnolarni anglatadi. Ular izohlanayotgan birikmaning sinonimi, varianti yoki tarjimasini ham emas; ular oʻzlari aloqador gap boʻlagi bilan bir yoki yaqin maʼnolarni ifodalamaydi, funktsiya jihatdan ham yaqin boʻlmaydi. Shuning

uchun ularni parallel qo‘llanilayotgan modifikatorlardek, izohlanayotgan so‘z, so‘z birikmasi bilan o‘rnini almashtirgan holda qo‘llash qiyin”<sup>19</sup>.

Modifikatorlar bundan farqli o‘laroq ular ifodalagan qo‘shimcha ma’lumotning xarakteri, asosiy gap yoki uning bir qismiga mazmunan bog‘liqlik darajasi, grammatik shakliga ko‘ra ikki guruhga bo‘lish mumkin<sup>20</sup>.

Birinchi guruhga asosiy gapga bevosita aloqador bo‘lmagan, manba, biroz obrazli ifoda yoki fikrning kimga qarashli ekanligini, tilga olingan biror shaxs, narsa-predmet kabilarning xususiyatini, millati, kasbi, biror ijtimoiy guruhga yoki hududga mansubligini ko‘rsatuvchi modifikatorlar kiradi.

Shuningdek, sintaktik konstruksiyaga mexanik ravishda kiritilgan, gap mazmuni talabidan kelib chiqmagan sharoit, so‘zlovchining hissiyoti, emotsional holati, bir vaqtning o‘zida ikkinchi boshqa narsa haqida o‘ylash kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan kiritmalar ham modifikatorlarning birinchi guruhiga xosdir. Bunday modifikator, odatda gapning kattaroq qismiga aloqador bo‘lib, aksariyat holatlarda biror grammatik shaklga ega bo‘lmaydi, bosh kelishikdagi so‘zlar orqali ifodalanadi<sup>21</sup>.

*With her elder and younger sisters she lived now in the house of Timothy, her sixth and youngest brother on the Bayswater Road* (attr. modifier) (J.Golsworthy. To let. p.237). Ushbu misolda so‘zlovchi ko‘p a‘zoli oilaga mansub bo‘lganligi bayon vaqtida ko‘rinib qoladi. U o‘zining opalari (elder sisters) va singillari (younger sisters) bilan Timotinikida yashardi. Xuddi shu yerda o‘quvchining ongida “Bular necha kishi o‘zi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuni payqagan so‘zlovchi gapda Timotidan keyin “oltinchi” modifikatorni keltiradi. Lekin bu modifikator barcha savollarga javob berish o‘rniga, yana bir savolni keltirib chiqarardi, ya’ni Timoti oltinchi o‘g‘ilmi yoki oilada oltinchi a‘zomi? Bu savolga biz Timoti oilada oltinchi a‘zo bo‘lsa kerak deb javob beramiz. Uning 5ta opa-singillari bor bo‘lgan bo‘lsa kerak deb tahmin qilamiz. Bunday javob tanlashimiz lingvokulturologik omillar asosida amalga oshiriladi. Negaki ingliz xaqlarida ko‘p farzandlilik kuzatilmaydi. Ular uchun 6 ta farzand ham juda ortiqcha ko‘p. Shuning uchun beshta qiz va oltita o‘g‘il bu oddiy ingliz oilasi uchun fantastik natija hisoblanadi.

*Chaqirilganlar soat o‘nlarida (kunduz) “Rahimxoniy” mehmonxonasida rasmiy o‘rinlari va amallari tartibi bilan o‘tirdilar.* (S.Ayniy, “Qullar”)

Ushbu misolda esa biz S.Ayniyning yozuvchilik mahoratiga guvoh bo‘lamiz. Agar u (kunduz) modifikatorini ishlatmaganida vaziyat sal tushunarsiz bo‘lib qolaverardi va kitobxon “Odatda bu kabi yig‘inlar, agar xufiyona yig‘ilish bo‘lsa ular kechqurun xalq uxlaganda, keraksiz guvohlarsiz, o‘tkazilardi. Ularda odatda shohga, xonga yoki amirga qarshi qandaydir yashirin tadbir belgilash, rejalashtirish, o‘tkazish, moliyalashtirish imkoniyatlari muhokama qilinardi. Ammo ikkinchi tomondan kechqurun mehmonxonani yoritish u davrda, aniqrog‘i XIX asrda sham yoki moychiroq yordamida amalga oshirilganligi va mehmonxona ma’muriyati va

<sup>19</sup>Umarxo‘jaev M.E. Umumiy tilshunoslik. - Andijon, 2010. - 44 bet.

<sup>20</sup>Xamzayev S.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ikkilamchi predikatsiyali qurilmalarning sintaktik, semantik va kognitiv xususiyatlari: falsafa doktori (PhD) avtoreferati. - T., 2018. - 16 bet.

<sup>21</sup>Goldberg A. Constructions: A Construction grammar approach to argument structure. – Chicago: University of Chicago Press. 2005. – 264 p.

mehmonlar uchun ham biroz noqulaylik yaratilganligi uchun uchrashuvni kunduzga ko'chirganlar. Yig'inni kunduzga ko'chirishning qo'yidagi afzalliklari bor edi.

1. Yig'ilayotganlar, chaqirilganlarning barchasi boy, amaldor bo'lganligi uchun ular kunduzi yig'ilish o'tkazishga qo'rqmaydigan shaxslar edi. Boshqacha qilib aytganda jamiyatning oldi edilar.

2. Agar majlis soat kechki 10 da boshlansa ikki uch soatga cho'zilib ketsa bu juda kech bo'lib ketar edi. Chunki ularning o'zi odatda soat 10ga qolmay uyquga ketar edilar.

3. Ular har xil kutilmagan chiqimlardan qo'rqadigan kambag'allar emas edilar.

4. Mana shu yuqoridagi presuppozitsiyalarni hisobga olgan holda S. Ayniy kunduz so'zini qo'shib qo'ygan. Mana shu so'zni o'zi chaqirilganlarning jamiyatda qanchalik katta mavqe va obro'ga ega odamlar ekanligini ta'kidlab o'tardi. Boshqacha qilib aytganda, ular shu qadar o'ziga ishongan boy shaxslar edilar-ki, boshqalar nima deyishidan cho'chib o'tirmay o'zlari hohlagan ishlarini bajarishga o'rgangan odamlar edi.

Modifikatsiya selektiv jarayon ekan, ko'p narsa, so'zlovchiga, uning pragmatik va lingvokulturologik xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ushbu bobda bir diskursda yoki bir nutq aktida bir fikrni ifodalashda so'zlovchilarning turli xil strukturalarni tanlashi, predmetlarga turlicha aniqlovchilar berishi, ish-harakatlarni tasvirlashda turli ravish, so'z birikmalari yoki ergash gaplar tanlashi sabablari izohlab berildi. Masalan:

*Katta stol atrofida otamning ukasi Yusup aka (student), men, Amin amakivachcham, kichkina Komil ovqatlanardik.* (N. Ismoilov, Afg'on shamoli).

Ushbu gapga kelsak, bu gapni stol atrofida o'tirgan to'rtta kishining eng kichigidan sal kattaroq odam gapirganligi modifikatorlar tomonidan ko'rsatilgan.

1. So'zlovchi studentni Yusup aka deb kattaligini eslatib o'tayapti. Komilni esa kichkina deb aytayapti. Demak stol atrofida ikkita kattaroq odam – Yusup va Amin va ikkita yoshroq odam gapiruvchi va Komil o'tirar ekan. Muallif bu holat haqida ko'proq ma'lumot berish uchun ular o'rtasidagi qarindosh urug'ligini ham aytib o'tgan - ammakivachcham, tog'am. Bu gapda bitta noma'lum so'z bu Komilning kimligi, yoshi va nega u qarindoshlar bilan ovqatlanishidir. Chunki bu kichkina Komil gapiruvchi bilan tengligi yoki rostdan ham kichik-mi bilolmaymiz. Chunki gapiruvchi deganda muallif – "Komil yoshi bo'yicha Yusuf va Amindan kichik" demoqchidir. Yoki bo'lmasa ikkinchi holat "Komil stol atrofida o'tirganlarni eng kichigi" degan fikrni ifoda qilmoqchidir. Biz buni kattaroq kontekstsiz aniqlay olmaymiz.

Yuqorida keltirilgan o'zbek tilidagi misollarga qiyoslash uchun ingliz tilidagi misollardan ayrimlarni keltiramiz.

*Dr. Winchcliffe, my predecessor, was a classmate of my father's.* (Attr.) (Sanborn. M. p.257)

Bu misolda Doktor Uyinklif so'zlovchining sinfdoshining dadasi bo'lib, u so'zlovchi avval egallagan lavozimni egallagan edi. Muallif Doktor Uyinklifni tanishtirish uchun aniqlovchi ergash gap ishlatmasdan, attributiv modifikatorni, buning ustiga ajratilgan holda qo'llab, bu kontekstda tejamkorlik tamoyilidan foydalandi va sodda gap chegarasida aytilishi kerak bo'lgan mazmunni ifodaladi. Bu

o‘rinda bu modifikatorni ajratib o‘tirmay, pre-pozitiv modifikator tarzida ishlatish ham mumkin edi. Ammo muallifga birinchi variant ko‘proq yoqqan ko‘rinadi. Chunki bu o‘rinda mantiqiy urg‘u Doktor Uyinklifga emas, balki so‘zlovchining qandaydir bir izdoshi borligiga qaratilgan edi. Aniqrog‘i bu pozisiyada bo‘lgan shaxslar yolg‘iz emas va Dr.Uyinklif so‘zlovchidan ham avval o‘sha vazifada bo‘lganligini bilish mazkur kontekstda so‘zlovchi uchun juda muhim, chunki bu amal yoki lavozim obro‘li lavozim bo‘lsa so‘zlovchiga obro‘ keltiradi, agar bu obro‘ maqtanishga arzimaydigan ish bo‘lsa ham so‘zlovchiga obro‘ keltiradi, chunki bu ishni bajarishga kirishgan uning o‘zi emas, balki boshqa odamlar ham bo‘lgan.

Ingliz va o‘zbek tilida keltirilgan modifikatorlar gapda aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelishi mumkin, ular o‘zlaridan oldin kelgan gap bo‘lagining, bir xususiyatini, bir belgisini aniqlashga xizmat qiladi. Ular ayrim paytlarda faqat aniqlovchi yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajaruvchi so‘zni emas, balki butun gapni modifikatsiya qiladi<sup>22</sup>.

Modifikatorlarning yana belgilaridan biri – odatda gapning oxiridan o‘rin olishidir. Bu yesa modifikatorlarning pragmatik funksiyasini, ya‘ni ta‘kidlash, kuchaytirish, emotsional va uslubiy bo‘yoq berishidir.

Axborot nazariyasiga ko‘ra, axborot zanjiri uzun, ko‘p elementli bo‘lganda, ko‘pincha zanjir oxiridagi elementlar axborotni qabul qiluvchilarda - resiverda yaxshi esda qoladi. Undagi intonatsiyaning qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar axborotning oxirgi qismi eng muhim qismi sifatida qabul qilinadi<sup>23</sup>.

Distant modifikatorlarining gap oxirida kelgandagi nisbiy, mustaqilligi, ta‘kidlash, bo‘rttirish bo‘yoqlari kuchli bo‘ladi. Post-pozitiv holatda kelgan modifikatorlar yoki post-pozitiv modifikatorlarni osongina farqlash mumkin. Ularni chegaralashda ba‘zan punktuatsiyaga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Masalan:1) *Halima kiygan ko‘ylak (chiroyli) o‘ziga yarashibdi. Halima kiygan ko‘ylak o‘ziga juda yarashibdi, chiroyli.* 2) *Uning qo‘lida saralab olingan gul (qip-qizil) bor edi. Uning qo‘lida saralab olingan gul bor edi, qip – qizil.* 3) *They are usually very goodlooking actor types, but nobody famous.*

So‘zlovchining muloqot maqsadi, gap hajmiga qo‘shilgan qat‘iy talab va tilni tejash tamoyillari birgalashib ayrim manolarni distant tarzda, ayrimlarini esa kontakt tarzda modifikatsiyalab diskursda voqelanadigan axborot hajmini to‘laroq saqlash vazifasini bajarishga yordam beradi.

*“Ingliz va o‘zbek tillaridagi pre- va post-modifikatorlarining lingvokulturologik jihatlari tahlili”* deb nomlangan uchinchi bobda ingliz va o‘zbek tillaridagi pre-modifikatorlar hamda post-modifikatorlarning lingvokulturologik jihatlari, umumiy va farqli xususiyatlari kabi masalalar tahlilga tortildi.

Modifikatsiya – olamning inson ongida to‘liq in‘ikos etishini ta‘minlovchi mental jarayondir. Inson o‘zini qurshab olgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bu vazifani bajarishda insonga modifikatsiya jarayoni yordam beradi. Tillardagi so‘zlar borliqdagi barcha narsa, hodisa yoki sifat xossa-xususiyatlarni ifoda qilib bera olmaydi. Xatto mana shu kamchilikni bartaraf qilish uchun yaratilgan

<sup>22</sup>Nurmonov A. O‘zbek tilida gapning semantik strukturasi. - T.: ФАН. 2000. – 380 бет.

<sup>23</sup>Iriskulov M, Tukhtasinov I, Kuldashev A. Theoretical English Grammar. - T.: Uzkitobsavdonashr 2020. – 224 p.

ko'pma'nolilik ham bu vazifani to'la-to'kis bajara olishga qodir emas. Inson miyasi borliqdagi barcha hodisa, narsa, belgi va h.k.larning har birini alohida nom berib uni xotirada saqlay olmaydi, inson miyasi bunga qodir emas va ikkinchi tomondan bunga ehtiyoj ham yo'q. Modifikatsiya jarayoni tilning bilish vazifasini bajarishini ta'minlovchi yagona hamda asosiy qurol va vositadir.

Demak modifikatsiya jarayonining turli tillarda turlicha kechishi, undagi o'xshash va farqli holatlarning bor-yo'qligi salmog'i, paydo bo'lish sabablari kabilarni o'rganish turli tillar tomonidan dunyoning lisoniy tasviri qanday yaratilishi mexanizmini tushunishga olib keladi. Ingliz va o'zbek xalqlari (aniqroq ifoda qilsak ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar va o'zbek tilida so'zlashuvchi xalqlar) borliqni sezishi, dunyoning lisoniy tasvirini yaratishdagi umumiy va xususiy holatlarini o'rganib chiqish esa til va tafakkur, til va ong, til va madaniyat kabi umummilliy, umumnazariy masalalarga yechim topishga ilmiy asos yaratadi.

Ingliz va o'zbek xalqlarida modifikatorlarni tanlab ishlatish til tizimining leksik, sintaktik va madaniy jihatlariga asoslanadi. Har ikki til o'ziga xos sifat modifikatorlari (modifiers) bilan boy bo'lib, bu modifikatorlar so'zlarni aniqlashtirish, kuchaytirish yoki cheklash uchun ishlatiladi. Biroq, ularni tanlash va ishlatish jarayoni har bir tilning o'z madaniy va grammatik xususiyatlariga mos ravishda farqlanadi.

*Her classic beauty and willowy frame give her global appeal over those editorial models with distinctive looks. (Harry Potter and the Half-Blood Prince, J.K. Rowling)*

“Willowy” so'zi willow (tol) daraxtidan kelib chiqqan bo'lib, inglizlarda tabiatning go'zalligi, ayniqsa, ingichka va uzun daraxtlarning egiluvchanligi bilan bog'liq. G'arb madaniyatida, ayniqsa anglo-sakson estetik me'yorlarida, ingichka va uzun bo'yli ayollar chiroyli hisoblanadi. *Willowy* so'zi ham shunday madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Bu tasvir inglizlarda ayolning nazokatini va nafisligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, *willowy* sifatida tasvirlangan ayol tabiiy go'zallikning bir qismiga o'xshatiladi.

O'zbek madaniyatida esa go'zallik me'yorlari ko'pincha boshqa tasavvurlar bilan bog'liq. Shu sababli, “willowy” so'zi o'zbek tilida bu madaniy jihatlar bilan to'liq teng kelmaydi.

Ushbu gapni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda, undagi so'zlar, tasvirlar va iboralar orqali milliy madaniyat, badiiy obrazlar va o'zbek xalqiga xos bo'lgan qadriyatlar o'zaro qanday bog'langanini o'rganamiz. Gapning poetik xarakteri va unda ishlatilgan obrazlar, shuningdek, ularning o'zbek madaniyatida qanday ramziy ma'noga ega ekanligiga e'tibor qaratamiz.

*Alifday qomating, xipcha belingdan, Menga bayon ayla o'sgan elingdan (Rustamxon).*

Ushbu gapda “Alifday qomating” iborasi ishlatilgan. Bu yerda “alif” arab alifbosidagi birinchi harf bo'lib, to'g'ri va ingichka shaklga ega. O'zbek xalq she'riyatida va an'anaviy tasvirlarda “alif” qomati nozik, baland bo'yli, jozibador insonni, ayniqsa ayol qomatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bunday poetik tasvir o'zbek adabiyotida va xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan. Shu sababli, “alif”

soʻzining ishlatilishi madaniy va estetik jihatdan maʼlum bir ideallikni, goʻzallikni ifodalash uchun qoʻllanilgan.

Oʻzbek madaniyatida qomatni taʼriflash, ayniqsa noziklik va husnni ifodalashda estetik tushunchalar koʻpincha badiiy va poetik ifoda vositasi boʻlgan. “alifday” qomat deyish orqali shoir yoki gapiruvchi ayolning nozik, chiroyli boʻy-bastini taʼkidlab, uning tashqi goʻzalligiga qoyil qolganligini bildiradi. Bu tasvir Sharq madaniyatiga xos boʻlgan ayollik goʻzalligini ideallashtiruvchi obrazlarning bir qismidir.

“*Xipcha belingdan*” soʻz birikmasi ham poetik va madaniy obrazlar bilan boyitilgan. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida *xipcha* soʻzi *xivich* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “tokning uzun-uzun, ingichka novdalari” maʼnosini anglatishi aytilgan. “*Xipcha bel*” oʻzbek xalq sheʼriyatida, shuningdek, xalqning goʻzallik ideallarida nozik, ingichka belni ifodalash uchun qoʻllaniladi. Bunday tasvirlar oʻzbek madaniyatida ayollik goʻzalligining muhim belgisi hisoblanadi. Oʻzbek xalq adabiyotida ayollarning qomati va nozik belligi haqida koʻp poetik tasvirlar uchraydi, va bu goʻzallik koʻpincha estetik ideallar bilan bogʻlanadi.

*Hozirgina kelinchakning oldida oʻzini Alpomishday pahlavon sezib turgan Mirza Hamid tili kalimaga kelmay, chuldirab qoldi* (X. Toʻxtaboyev. Qasoskorning oltin boshi). Ushbu gapdagi modifikatorlarni tahlil qilar ekanmiz, unda xalq ogʻzaki ijodi, madaniy qadriyatlar va til xususiyatlari oʻz ifodasini topganligiga amin boʻlamiz.

“*Oʻzini Alpomishday pahlavon sezib turgan*” jumlasidagi “Alpomish” soʻzi oʻzbek xalq eposidagi qahramon, botirlik va matonat timsoli. Mirza Hamidning oʻzini Alpomishga qiyoslashi oʻziga boʻlgan ishonchini yoritadi. Bu esa oʻzbek mentalitetiga xos xususiyatlarning yorqin namunasidir, chunki til orqali xalqning madaniyati, tarixi va qadriyatlari ifodalanadi.

“*Kelinchakning oldida*” harakat modifikatorini tahliliga kelsak, oʻzbek madaniyatida yosh yigitlarning kelinchak yoki qizlar oldida andisha qilib, uyalishlari tabiiy holat. Bu orqali milliy mentalitetdagi kamtarlik va andisha kabi tushunchalar namoyon boʻladi.

*By and by the lionhearted deacon came out of his room, asked severely for 'young Delance,' wandered through the crowd, answered indignantly a few inquiries about his health, and returned to his lair* (Bacheller, Irving).

Ingliz madaniyatida sher qadimdan jasorat va qirollik timsoli boʻlib kelgan. Misol uchun, Angliya gerbida sher tasviri mavjud. Richard the Lionheart (Sheryurak Richard) — Angliya qiroli boʻlib, u jasorati va harbiy muvaffaqiyatlari bilan mashhur. Bu tarixiy shaxs "lionhearted" sifatining keng qoʻllanilishiga hissa qoʻshgan. "Lionhearted" soʻzi ingliz tilida chuqur lingvokulturologik maʼnoga ega boʻlib, deakonning jasoratini, qoʻrqmasligini va qatʼiyatini ifodalaydi. Bu soʻz orqali muallif qahramonning xarakterini aniq va taʼsirli tarzda tasvirlagan. Sher obrazining ingliz madaniyatidagi oʻrni, tarixiy shaxslar bilan bogʻliqligi va madaniy qadriyatlarini ushbu soʻzning semantik yuklamasini oshiradi. Oʻzbek madaniyatida jasoratni ifodalash uchun Alpomish kabi qahramonlarning nomlari ishlatiladi, ingliz tilida esa sher obraziga murojaat qilinadi.

“Ingliz va o‘zbek tillarida makon modifikatorlarining konseptual-semantik tahlili” deb nomlangan bo‘lib, mazkur faslda makonni reprezentatsiya qilishning konseptual-semantik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Makoniyy munosabatlar va harakatning tilda konseptualizatsiyasi turlarini tadqiq qilish kognitiv grammatikadagi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bu kategoriya doirasida grammatik jihatdan rasmiylashgan ifodani anglatgan tushuncha kategoriyalari, ya'ni miqdor, makon, makoniyy cho‘ziqlik, yopiqlik, makonning bo‘linishi va hokazolar ko‘rib chiqildi. Djakendoff va Longakerning ko‘plab ishlarida makoniyy ong masalasi batafsil yoritib berildi.

Har bir qayd qilingan kategoriyalarga kiruvchi makonlar o‘ta turlichadir. Masalan, voqelikdagi makon kategoriyasi doirasida xususiyat, hissiyot, narsalar, inson, vaqtning qismi hisoblanuvchi sinf elementlari ajraladi.

Makon moddiylikning asosiy atributlaridan hisoblanadi. Borliqni modifikatsiyalashning asosiy parametrlardan hisoblangan makonni reprezentatsiya qilishda tillar orasida ayrim farqlar mavjud. Bu holatning tabiati ayrim misollar yordamida o‘rganib chiqildi. Ayrim tillarda borliqning makoniyy lokalizatsiyasi afzal ko‘riladi. Modifikatsion parametrlash odatda 3 ta asosiy model asosida amalga oshiriladi: 1. Makoniyy model; 2. Ekzistensial model; 3. Possesivlik (egalik) modeli.

Yuqoridagi parametrlar bo‘yicha quyidagi holatlarni 3 til misolida ko‘rib chiqdik.

1. Dunyoning makoniyy lokalizatsiyasi masalasi. *There is no happiness in the world, there is will and calamity* (ekzistensial model). *Dunyoda baxt yo‘q, iroda va xotirjamlik bor* (ekzistensial model). *На свете с частья нет, а есть покой и воля* (makoniyy model).

2. Dunyoning u yoki bu fragmenti haqida. *There is a faculty of International Journalism in UzSWLU* (ekzistensial model). *O‘zDJTUda xalqaro jurnalistika fakulteti bor* (ekzistensial model). *В УзГУМЯ есть факультет международной журналистики.* (makoniyy model)

3. Oilaviy hayot sohasida. *I have children* (egalik modeli). *Mening farzandlarim bor* (ekzistensial modeli). *У меня есть дети* (makoniyy model).

4. Jismoniy holat va xususiyatlar sohasida. *I have a headache* (egalik modeli). *Boshim og‘riyapti* (Bu yerda makoniyy model; ekzistensial modeli va egalik modellari yo‘q). *У меня болит голова* (makoniyy model).

5. Ruhiiy holat sohasida. *The boy has a character* (egalik modeli). *Bolada xarakteri bor* (makoniyy model). Tilda mana shunday holat ham qo‘llaniladi: *Xarakter bolada bor* (ekzistensial modeli). *У мальчика есть характер* (makoniyy model).

6. Narsalarning xossalari sohasida. *The chair has no leg* (egalik model). *Стулнинг оёғи йўқ* (egalik modeli). *У стула нет ножки* (makoniyy model). Agar biz “*Stulda oyoq yo‘q*” desak egalik modeli makoniyy modeliga aylanadi. Agar “*Stul oyoqsiz*” desak unda ekzistensial model paydo bo‘ladi.

7. Dunyodagi voqea-hodisalar sohasida. *I had a birthday* (egalik modeli). *Mening tug‘ilgan kunim edi* (egalik modeli). Agar gapni transformatsiya qilsak egalik modeli makoniyy modelga aylanishi mumkin. *Menda tug‘ilgan kun bor edi.*

(*Shuning uchun sening to‘yinga bora olmading*) – (makoniy model). *У меня был день рождения* (makoniy model)

8. Mavhum tushunchalar sohasida. *The theory has some contradictions* (egalik modeli) yoki: *There are some contradictions in the theory* (ekzistensial + makoniy model). *Nazariyada qarama-qarshiliklar bor* (makoniy model). *В теории есть противоречие* (makoniy model).

Yuqoridagi holatlarni parametrlar bo‘yicha 3 til misolida ko‘rib chiqish quyidagilarni jadval shaklida ko‘rsatish imkonini berdi.

3.13 - jadval

### Shaxsiy dunyoni til vositalari yordamida modellash

№	Parametr	Ingliz tili	O‘zbek tili	Rus tili	Izoh
1	Dunyo, borliq haqidagi bilimlar sohasi	Ekzistensial modeli	Ekzistensial modeli	Makoniy modeli	Ekzist.(2) Makon.(1)
2	Dunyoning alohida olingan bir fragmenti sohasi	Ekzistensial modeli	Ekzistensial modeli	Makoniy modeli	Ekzist.(2) Makon.(1)
3	Oilaviy hayot sohasi	Egalik modeli	Ekzistensial modeli	Makoniy modeli	Egalik (1) Ekzist.(1) Makon.(1)
4	Jismoniy holat va xususiyatlar sohasi	Egalik modeli	-	Makoniy modeli	Egalik (1) Makon.(1)
5	Ruhiy holatlar sohasi	Egalik modeli	Makoniy modeli	Makoniy modeli	Egalik (1) Makon.(2)
6	Narsalarning xossalari sohasi	Ekzistensial modeli	Egalik modeli	Makoniy modeli	Egalik (1) Ekzist.(1) Makon.(1)
7	Aniq voqea-hodisalar sohasi	Egalik modeli	Egalik modeli	Makoniy modeli	Egalik (2) Makon 1)
8	Mavhum tushunchalar sohasi	Egalik modeli	Makoniy modeli	Makoniy modeli	Egalik (1) Makon.(2)

3.14 – jadval

### Modellash natijasi

Modifikatsion parametrlash modeli	Ingliz tili	O‘zbek tili	Rus tili	Jami
Makoniy modeli	-	2	8	10
Ekzistensial modeli	3	3	-	6
Egalik modeli	5	2	-	7
Neytralizasiya	-	1	-	1

O‘zbek tilida etakchi model ekzistensial model bo‘lib u 40% natijani ko‘rsatdi, makoniy model 25% natija bilan ikkinchi o‘rinni egalladi. Egalik modeli ham 25% lik natija ko‘rsatdi.

Ingliz tilida esa dunyoni bilishda egalik modeli etakchi hisoblanadi unda egalik modeli 60% natija ko'rsatgan holda makoniy model 0% natijani ko'rsatdi. Ekzistensial modeli esa 40% natija ko'rsatdi. Egalik modeli etakchiligi bois inglizlarda dunyoga qarash, dunyoni bilish "Narsa kimniki? Narsa kimga tegishli? Narsa bormi?" degan muammo atrofida aylanadi. O'zbek xalqlarning borliqqa munosabati asosan 3ta muammoga qaratilgan va quyidagi ketma-ketlik asosida muhokama qilinadi. 1. Narsa bormi? 2. U narsa qaerda? 3. U narsa kimniki? Rus tilida esa dunyoni bilishda makoniy model etakchi (100%) hisoblanib, dunyoni bilish "Narsa qaerda?" degan savol atrofida aylanadi.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dunyoni bilishda qo'llanilgan modellar asosida xalq tafakkuri, xulqi va yashash strategiyasining asosiy belgilarini bilish mumkin.

### **UMUMIY XULOSALAR**

Ingliz va o'zbek tillaridagi harakat modifikatorlarining struktural-semantik, funksional va lingvokulturologik jihatlarini atroflicha tizim tarzida tadqiq qilish bizga quyidagilarni xulosa sifatida taqdim etish imkonini berdi.

1. Harakat modifikatorlarini tadqiq etishda til birliklari tomonidan tasvirlangan ish-harakat real borliqda amalga oshirilgan bo'lib u so'zlovchi yoki nutq obyekt bo'lib xizmat qiladigan boshqa shaxsning konseptuallashtirgan dunyosi o'rtasidagi farqni yo'qotib yubora olmaydi. Farqni kamaytirish maqsadida turli modifikatorlar ishlatiladi.

2. So'zlovchi o'z hukmida ifodalagan, tasvirlagan borliq va uning ongida, u ifodalamoqchi bo'lgan konseptual dunyo bir-biriga to'la mos tushmaydi. Bu ikki dunyoni bir-biriga moslash uchun so'zlovchi yoki yozuvchi turli modifikatorlardan keng foydalanadi. Bunda muloqot niyati asos qilib olinadi.

3. Borliqda bajarilgan yoki bajarilayotgan ish-harakatni xarakterlovchi turli modifikatorlar tomonidan ifodalangan ma'no insonlar tomonidan dunyoni konseptuallashtirishidir.

4. Harakat modifikatorlari orqali nutq mahsuloti yaratish jarayonida so'zlovchi yoki yozuvchi o'ziga ma'lum bo'lgan dunyoni konseptuallashtiradi va o'sha dunyoning lisoniy tuzilishini tasvirlaydi. Shu bois dunyoning lisoniy tasviri har bir til sohiblari tomonidan hatto ular bir tilda so'zlashsa ham o'ziga xos boshqacha, farqli yaratiladi.

5. Insonlar kognitiv operatsiyalarni ifodalovchi axborotni ichki tizimlashda hamda lingvistik va nolisoniy axborotni tashkil etishda modifikatsiyali strukturalarni tanish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega. Ular o'z mental olamini yaratishda bazaviy tushunchalarni strukturalashda yuqori darajadagi modifikatsiyali operatsiyalardan foydalanadilar. Shuningdek, ongdagi uzluksiz kognitiv fazo va maxsus operatsiyalar orqali, so'zlar ma'nosini nutq aktida fokuslash uchun modifikatsiyali strukturalardan foydalanadilar.

6. Modifikatsiya tushunchasi tilshunoslikda predmetning ma'no, belgi, sifat va xususiyatlaridagi o'zgarish va o'ziga xosliklarni ifodalaydi hamda uchta asosiy tushunchani o'z ichiga oladi: determinatsiya, atributivlik va relyatsiya (adverbial modifikatsiya). Ingliz tilida determinatsiya funksiyasi determinativlar deb ataluvchi

soʻzlar guruhi orqali amalga oshiriladi; bunga artikllar (a, an, the), egalik olmoshlari (my, his, her, our, your, their), noaniq olmoshlar (some, any), koʻrsatish olmoshlari (this, that) va inkor olmoshi (no) kiradi, va bu soʻzlar predmetni aniqlash va belgilashda yordam beradi. Oʻzbek tilida esa determinativlar mavjud emas, yaʼni bu funksiyani bajaruvchi alohida soʻzlar yoʻqligi aniqlandi.

Atributivlik har ikki tilda ham mavjud boʻlib, ingliz tilidagi "attribute" va oʻzbek tilidagi "aniqlovchi"ga mos keladi. Oʻzbek tilida esa atributiv aloqada soʻzlarning oʻzaro funksional vazifalari bor va ular aniqlovchi (modifier) va aniqlanmish (modificand) sifatida bosh soʻz va tobe soʻz oʻrtasidagi munosabatni bildiradi.

Adverbial modifikatsiya ingliz tilida "adverbial modifier" orqali, oʻzbek tilida esa "hol" gap boʻlagi orqali ifodalanadi. Bu usulda soʻzlar va iboralar gapda qoʻshimcha maʼno yukini olib, harakat yoki holatning turli jihatlarini batafsilroq tasvirlaydi.

7. Qiyoslanayotgan tillarda modifikatsiyaning ikki turi borligi aniqlandi: a) pre-pozitiv modifikatsiya; b) post-pozitiv modifikatsiya.

Ingliz tilida pre-pozitiv modifikatsiyali strukturalar quyidagi modellarda boʻlishi kuzatildi: sifat+ot; ot+ot; olmosh+ot; son+ot; ravish+ot; sifatdosh I+ot; sifatdosh II+ot. Oʻzbek tilida esa pre-pozitiv modifikatorlarning ikki turi mavjud boʻlib atributiv modifikatsiya va possessiv modifikatsiya, ularning har biri turli soʻz turkumlari bilan voqelanadi. Atributiv modifikatsiya sifat, sifatdosh, ravish, son, koʻrsatish va soʻroq olmoshlari, sifatlashgan otlar, undov soʻzlar bilan ifodalanib, possessiv modifikatsiya esa qaratqich kelishigidagi otlar va otlashgan soʻzlar bilan voqelanishi dalillandi.

Ingliz tilida post-pozitiv modifikatorlar sifatida quyidagi soʻzlar ishlatilishi kuzatildi: sifatlar; sifatli soʻz birikmalari; sifatdosh va sifatdoshli soʻz birikmalar; predlogli soʻz birikmalar; infinitiv va infitivli soʻz birikmalari; predlogsiz otli soʻz birikmasi; bogʻlovchili soʻz birikmalar; ravishlar; sonlar; ergash gaplar. Oʻzbek tilida esa postmodifikatsiyali strukturalar, tarkibi yaxlit boʻlmagan murakkab gaplarni tashkil etib, ular tugal fikrni ifodalovchi sintaktik guruhlarni mazmun jihatdan aloqador qismlar bilan birlashtirishi aniqlandi. Natijada, ingliz tilidan farqli ravishda umumiy fikrni anglatadigan tarqoq "masofaviy" (discontinious) aloqalar hosil qilishi dalillandi.

8. Modifikatsiya natijasida inson voqelik haqidagi bilgan maʼlumotlari bilim darajasiga koʻtarilishi uchun, ular bir qator talablarga javob berishi lozim. Birinchidan, maʼlumotlar voqelikka mos kelishi kerak; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli boʻlishi zarur; uchinchidan esa, bu maʼlumotlar dalillar bilan asoslangan boʻlishi shart. Ushbu uch shartning birgalikda mavjudligi maʼlumotlarni modifikatsiya qilish uchun yetarli darajaga olib chiqadi. Soʻzlovchi yoki yozuvchi shaxsning moddiy dunyo haqidagi bilimlari nisbiy boʻlib, u doimiy ravishda rivojlanib boradi. Modifikatsiya esa ana shu rivojlanish jarayonini taʼminlaydigan asosiy mental operatsiya sifatida inson bilimini yanada boyitishga xizmat qiladi.

9. Ingliz madaniyatida borliqqa, insonga, narsalarga boʻlgan munosabat sharqona madaniyatda kuzatiladigan munosabatdan ancha farq qilgani uchun ushbu ikki til oʻziga xos olam manzarasiga ega. Shu bois tildan foydalanuvchilar shu manzaraga mos ravishda ifodalar mazmunini shakllantirishga majbur boʻladi. Ingliz

millati madaniyatida Xristian dini aqidalari va hurfiylik ustunligi, individualizm va shaxsiy erkinlik qadriyatlari ko'proq aks ettiriladi. O'zbek milliy mentalitetida esa Islom diniga mos ravishda shukronalik, sabr-toqat, taqdiridan rozi bo'lish, oilaparvarlik qadriyatlari ustun qo'yiladi

10. Antropotsentrik paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi, boshqa sistemalar inson, jamiyat, madaniyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan g'oyalar yig'indisidir. Lingvokulturologiya haqida so'z yuritganda shuni alohida e'tiborga olish lozimki, u o'rganadigan til birliklari til va madaniyat elementlarining sintezi hisoblanadi.

11. Ingliz va o'zbek tillari badiiy diskursida voqelangan pre- va post-modifikatorlari qiyosiy tahlil qilindi va bu ikki xalq mentalitetlari orasida tarixiy, geografik, diniy va ijtimoiy omillar tufayli ba'zi farqlar mavjudligi aniqlandi. Ingliz mentaliteti ko'pincha individualizm, shaxsiy erkinlik va mustaqillikni qadrlash bilan tavsiflanadi; ular uchun vaqtga qat'iy rioya qilish, shaxsiy makon va shaxsiy hayotga hurmat muhim ahamiyatga ega.

O'zbek millati dunyoqarashi esa ko'proq kollektivizm, oilaviy va jamoaviy qadriyatlarga asoslanadi. O'zbek madaniyatida mehmondo'stlik, katta-kichikni hurmat qilish va an'anaviy urf-odatlariga rioya qilish muhim sanaladi. Shuningdek, diniy e'tiqodlar va milliy an'analar shaxsiy hayot va jamiyatdagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatish kuchiga ega.

12. Badiiy diskurs — bu muallif tomonidan yaratilgan va o'quvchi tomonidan qabul qilinadigan matnlarning kommunikativ jarayoni. U o'zida til vositalari, madaniy kontekst va estetik komponentlarni birlashtiradi. Badiiy diskursning asosiy komponentlari matn, muallif, o'quvchi va ularning o'zaro aloqalaridir. Bu aloqalar orqali muallif o'z fikrlarini, g'oyalarini va madaniy qadriyatlarini o'quvchiga yetkazadi.

13. Ingliz va o'zbek xalqlari borliqning asosiy parametri bo'lgan makonni ifodalashda turli strukturalar qo'llanilishi aniqlandi. Ma'lum bir makonga yoki kontekstga uning mavjudligini tasdiqlash orqali yangi referentni nutqqa kiritishda foydalaniladigan strukturalar asosida 3 ta (ekzistensial, makoniy va egalik) modellar ishlab chiqildi. Shaxsiy dunyoni til vositalari yordamida modellashtirishda 8 xil holatlarda ushbu modellar qo'llanilishi ingliz, o'zbek va rus tillari materiali misolida qiyosiy ko'rib chiqildi. Natijada, ingliz xalqlarida dunyoga qarash, dunyoni bilishda "Narsa kimniki? Narsa kimga tegishli? Narsa bormi?" degan muammo atrofida aylanadi, o'zbek millatining borliqqa munosabati asosan 3 ta muammoga qaratilgan va quyidagi "Narsa bormi? U narsa qayerda? U narsa kimniki?" ketma-ketligi asosida bo'lsa, rus tilida esa "Narsa qayerda?" degan savol atrofida muhokama qilinadi. Natijada, dunyoni bilishda qo'llanilgan modellar asosida xalq tafakkuri, xulqi va yashash strategiyasining asosiy belgilarini bilish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ №DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УЗБЕКИСТАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**УЗОКОВА ШАХНОЗА СОИБНАЗАРОВНА**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МОДИФИКАТОРОВ  
ДЕЙСТВИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ  
(на примере английского и узбекского языков)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное  
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ФИЛОЛОГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером №В2020.4.PhD/Fil1466 в Высшей Аттестационной Комиссии.**

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.jspu.uz](http://www.jspu.uz)) и на информационно-образовательном портале “Ziyonet” ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Кулдашев Акрам Махмудович,**  
доктор филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Джумабаева Жамила Шариповна**  
доктор филологических наук, профессор  
**Хайруллаев Хуршид Зайниевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019. Fil.27.01 при Узбекистанском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, Ташкент, ул.Кичик халка йули, 21а. Тел: (998 71) 220-12-91; fax: (99869) 230-12-92; e-почта: [info@uzswlu.uz](mailto:info@uzswlu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекистанского государственного университета мировых языков (Адрес: 100138, Ташкент, ул.Кичик халка йули, 21а. Тел: (998 71) 220-12-91; fax: (99869) 230-12-92; e-почта: [info@uzswlu.uz](mailto:info@uzswlu.uz))

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года  
(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года)

**И.М.Тухтасинов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней доктор педагогических наук, профессор

**Х.Б.Самигова**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней доктор филологических наук, профессор

**Ж.А.Якубов**

Председатель Научного семинара при Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В области мировой лингвистики на начало XXI века важным вопросом стало исследование национальных языков с учётом их уникальных особенностей в когнитивном и лингвокультурологическом аспектах. В художественном дискурсе мировоззрение, выраженное через концепты, проявляется по-разному в различных языках и культурах, при этом в данном процессе культурные коды, ценности и обычаи изображаются через язык. Человеческая деятельность осуществляется в рамках определённой национальной культуры и окружающей среды. Поэтому наличие национального колорита в структурах и формах познавательных процессов является естественным. Модификаторы играют важную роль в более глубоком понимании семантических и прагматических аспектов языка, а их использование в художественных текстах отражает культурные и национальные особенности.

В мировой лингвистике активно развиваются научные направления, посвященные анализу процесса модификации в художественном дискурсе, закономерностей его проявления и использования в коммуникации, а также лингвистических методов, реализующих коммуникативную цель, в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах. В результате расширяется спектр научных исследований, направленных на описание резервных возможностей различных уровней языков. Лингвокультурологическое изучение модификаторов позволяет глубже понять национальные и культурные содержания, выраженные через грамматические структуры языка, а также способствует более полному осмыслению культурных особенностей мировоззрения двух народов. В результате, полученные результаты могут быть полезны для развития теории лингвистики, особенно в области когнитивной лингвистики, социолингвистики и лингвокультурологии, а также для практических нужд в области перевода и межкультурной коммуникации.

В узбекской лингвистике исследования в области когнитивной лингвистики и лингвокультурологии в основном сосредоточены на концептуализации, в то время как монографические исследования, посвящённые проблеме категоризации, представляют собой относительно ограниченную область. Вопрос выражения локальных актантов глаголов в предложении в функции обстоятельства места<sup>24</sup>, а также пространства действия и состояния<sup>25</sup>, был исследован как один из типов модификационных структур. Также в исследованиях были рассмотрены модификационные стадии, придающие предложению дополнительные абстрактные значения,

---

<sup>24</sup>Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari.: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1996. - 86 bet.; Sharipova O'. O'zbek tilidagi yumush fellarining ma'no valentliklari: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. - Toshkent, 1996. - 15 bet.

<sup>25</sup>G'ulomov A. G'. Sodda gap. – Toshkent: FAN, 1955. – 81 bet.; G'ulomov A.G', Asqarova M.A. Hozirgi zamon o'zbek tili. Sintaksis. - Toshkent: O'OMDN, 1961. – 118 bet.

такие как временность, модальность, персональность<sup>26</sup> и другие, которые хотя и были частично изучены, однако вопрос их функционального проявления в художественном дискурсе и с точки зрения лингвокультурологии ещё недостаточно исследован.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит при выполнении поставленных задач в Законе Республики Узбекистан №ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года «Об образовании», Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», №ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису 24 января 2020 года и 29 декабря 2020 года и выполнению задач, предусмотренных другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной деятельности<sup>27</sup>.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления республиканского научно-технического развития «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Проблема модификации широко обсуждалась в мировой лингвистике в общем и частном аспектах на материале разных языков и в разных областях науки. В том числе:

---

<sup>26</sup>Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent, 2007. - 9 bet.; Shorasulova Sh. Sodda gap tarkibidagi sifatdoshli qurilmalarning semantik-sintaktik tadqiqi: filol. fan. nom. ... diss. avtoreferati. – T., 2006. – 23 bet.

<sup>27</sup>O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar va 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaati.

в когнитивистике Н.Д.Арутюнова, В.З.Демянков, В.И.Карасик, А.Э.Кибрик, В.В.Красних, Е.С.Кубрякова, Е.В.Рахилина, О.Н.Селиверстова, Ю.С.Степанов, Р.М.Фрумкина, М.Бирвиш, В.Крофт, Д.А.Сруге, Г.Фаусонниэр, М.Жонсон, Г.Лакофф, Р.Лангаскер, С.Р.Левин, Ж.Р.Тайлор, М.Турнер, А.Вейрзбиска и другие;

в семантике Н.Ф.Алефиренко, Ю.Д.Апресян, А.В.Бондарко, Р.А.Будагов, Е.М.Волф, В.Г.Гак, В.фон Гумболдт, И.М.Кобозева, Н.Г.Комлев, А.И.Новиков, Е.В.Падучев, Ю.С.Степанов, В.Н.Телия, Э.В.Урисон, А.А.Уфимсева, Д.Л.Болингер, А.Вэйрзбиска;

в теории дискурса М.М.Бахтин, В.Г.Борботко, И.Р.Галперин, Ю.М.Лотман, М.Л.Макаров, Г.Г.Москалчук и другие.

